

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY JIHLTLARI**

*Xasanova Xamida Xaydaraliyevna*

*Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalri universiteti mustaqil  
tadqiqotchisi, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti*

*Olmaliq filiali katta o'qituvchisi*

[h.hamida1776@mail.ru](mailto:h.hamida1776@mail.ru)

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda respublikamizda zamonaviy bank amaliyotining shakllanishi bilan bog‘liq asosiy vazifalar mijozlarga taqdim etiladigan bank xizmatlari doirasini kengaytirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalangan holda bank xizmatlari ko‘rsatish jarayonida vaqtni qisqartirish, onlayn xizmatlarni rivojlantirish, mijozlarning turli xil kreditlash xizmatlaridan qoniqish darajasini oshirish, narx siyosati samaradorligini oshirishning huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va institutsional asoslarini takomillashtirish kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi - O‘zbekiston Respublikasi moliya va pul-kredit tizimining uzviy qismi hisoblanadi. Respublikamizda bank tizimi ikki pog‘onali bank tizimidan iborat bo‘lib, o‘z ichiga Markaziy bank va tijorat banklarini oladi.

Markaziy bankning tijorat banklari bilan hamda tijorat banklarining o‘z mijozlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining Qonun hujjatlari, jumladan “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi hamda “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilangan. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 20-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida banklar bank operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildirlar<sup>1</sup>.

Tijorat bankinging o‘ziga xos xususiyati, bu yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanishdan iboratdir. SHuningdek, tijorat banklari jismoniy va yuridik shaxslarga bank hisobvaraqlarini ochadi va yuritadi, to‘lovlarni amalga oshiradi. Banklar qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa turdagi operatsiyalarni ham amalga oshirishlari mumkin. Bank xizmatlarining iste‘molchilari bankni va bank xizmatlarini tanlashda erkindir. Banklar iste‘molchining talabiga binoan unga bank xizmatlarini ko‘rsatish shartlari bilan tanishish imkoniyatini taqdim etishi shart. Bank shaxsni bankning xizmatidan yoki xizmatidan foydalanish sharti sifatida bankning yoki o‘zga uchinchi shaxsning

<sup>1</sup> <https://cbu.uz/sayti>.  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

boshqa bank xizmatidan yoki xizmatidan foydalanishga majbur qilmasligi kerak<sup>2</sup>.

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Bank xizmatlarini ko'rsatishning sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori banklarda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun bir qator muhim chora-tadbirlarni belgilaydi:

- mijozlarga sifatli va zamonaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha, yangi bank xizmatlarini joriy etish, mavjud xizmatlarni takomillashtirish, mijozlarning ehtiyojlarini o'rganish va ularni qondirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish;

- bank xodimlarining kasbiy mahoratini oshirish borasida xodimlarni doimiy ravishda malaka oshirish va qayta tayyorlash, xodimlar uchun kasbiy ko'nikmalar va kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini joriy etish;

- bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini takomillashtirish yo'nalishida zamonaviy boshqaruv usullarini, shuningdek, xizmat ko'rsatish standartlarini joriy etish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;

- bank xizmatlarini ko'rsatishda mijozlar manfaatlari va huquqlarini ta'minlashda bank xizmatlari shartlari va tariflarining shaffofligini oshirish, mijozlar shikoyatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish;

- bank tizimida raqobat muhitini rivojlantirish choralarda banklar o'rtasida sog'lom raqobatni rag'batlantirish, bank xizmatlarining xilma-xilligini oshirish kabilardir.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida O'zbekiston banklari xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratilgan. Unda banklar shartnoma asosida pul mablag'larini depozitlar, kreditlar shaklida bir-biridan jalb etishi va bir-biriga joylashtirishi, hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishi hamda litsenziyada nazarda tutilgan boshqa moliyaviy operatsiyalarni bajarishi mumkinligi, shu bilan banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Mijozlar o'zlari tanlagan bitta yoki bir necha bankda milliy va chet el valyutasida bank hisobvaraqlari ochishga haqli. Bank hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish, shuningdek banklar va ularning mijozlari o'rtasidagi milliy va chet el valyutasidagi hisob-kitoblar tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Ushbu qonun bank tizimida mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishning huquqiy asoslarini

---

<sup>2</sup> "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni yangi tahriri. Toshkent. 5 -noyabr 2019 -yil. O'RQ-580-son.

yaratadi hamda banklarni xizmat sifatini yaxshilash uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishga undaydi.

Yana bir qonun hujjatlaridan biri “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”<sup>3</sup>ga muvofiq, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

1) ilg‘or xalqaro tajriba va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish;

2) korporativ boshqaruvning ilg‘or standartlari va tajribasini joriy etish orqali banklarda boshqaruvni takomillashtirish, bank boshqaruvi organlari hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini hamda ular tomonidan ma‘lumotlarni lozim darajada oshkor etilishini ta‘minlash;

3) banklar faoliyatini tijoratlashtirishni oshirish, bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, shuningdek, pul-kredit siyosati instrumentlarining samaradorligini oshirish uchun subsidiyalangan kredit berishdan voz kechish;

4) tijorat banklarining jamg‘armalarni investitsiyalarga safarbar qilish hamda ularni moliyaviy va iqtisodiy nuqtai nazardan eng samarali sohalarini moliyalashtirishga yo‘naltirishni ta‘minlovchi moliyaviy vositachi sifatidagi rolini oshirish;

5) strategik xorijiy investorlarni jalb qilish va moliya tizimining xalqaro moliya bozorlariga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvini ta‘minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bank faoliyatini izchil liberallashtirish va uni eng yaxshi xalqaro amaliyot bilan uyg‘unlashtirish;

6) nobank kredit tashkilotlarini, shu jumladan ushbu segmentda raqobatni rivojlantirish, prudensial tartibga solishning tegishli normalarini rivojlantirish orqali, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini engillashtirish hisobiga rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Bank tizimi samaradorligini oshirish tadbirkorlik subektlari va aholining arzon va sifatli moliyaviy xizmatlarga o‘tib borayotgan ehtiyojlarini ta‘minlash uchun iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim. Bank tizimining barqarorligi va barqarorligini ta‘minlash uchun normativ-huquqiy bazani doimiy ravishda o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitga

---

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan o‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.

moslashtirish, bank faoliyati ustidan nazorat va nazoratni kuchaytirish zarur. Fuqarolarni bank xizmatlaridan samarali foydalanish bo'yicha xabardor qilish va o'rgatish bank sektoriga ishonchni oshirish va aholining moliyaviy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son.
2. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuni, 05.11.2019 yil O'RQ-580-son.